TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING USTUVORLIGI

Abulfayziyev Sardor Rashidovich
Guliston davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi magistranti
e-mail: abulfayziyevs94@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta’lim sohasidan foydalanish bo‘yicha statistikalar berilgan. Raqamli o‘rganish, raqamli kontent, onlayn o‘quv qo‘llanmalari, tahlil va baholash, masofaviy ta’lim va boshqalar kundan-kunga mashhur bo‘lib bormoqda. Raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta’limning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta’lim tizimi orqali yangi ko‘nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o‘rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion va raqamli texnologiyalar, raqamli o‘qitish ta’lim tizimi, masofaviy ta’limning afzalligi, masofaviy platformalar, mobil qurilmalar, Internet tarmog‘i.*

Annotation: The article provides statistical data on the need and benefits of using digital and innovative technologies in the educational process and the use of distance education. Digital learning, digital content, online lessons, assessment and evaluation, distance learning, etc. are becoming popular every day. The need to use digital and innovative technologies and the introduction of new generation distance education systems is explained in detail in order to master new skills or materials related to the subject faster, easier and cheaper through the distance education system.

Keywords: *innovative and digital technologies, digital teaching and learning system, advantages of distance education, distance platforms, mobile devices, Internet.*

O‘zbekistonda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda, ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi. Ta’limda ilg‘or texnologiyalarning keng o‘zlashtirilishi, uzluksiz ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, o‘quv-tarbiya jarayonining didaktik jihatdan ta’minlanishi ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan takomillashtirishga asos bo‘lmoqda. Ma’lumki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar keng ko‘lamda amalga oshirilib kelmoqda. Ayniqsa, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari keng tus olgan. Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli O‘zbekiston” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda. Bu kabi ustuvor vazifalarning bajarilishi raqamli ta’lim masofa va turli xil ko‘rinishdagi to‘siqlarni va iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari - masofaviy ta’lim bu E-Learningga qaraganda kengroq tushunchadir, u interfaol mustaqil ta’limning va qo‘llab quvvatlashning intensiv maslaxat sintezi hisoblanadi. Shunday qilib, elektron ta’lim masofaviy ta’limning bir bo‘lagi hisoblanadi. Masofaviy ta’lim asosiy o‘quv materialini o‘quvchilarga yetkazib berish va o‘quv jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi orasida interfaol ishlashni ta’minlaydi.

Bunda qo‘llanmalarni yetkazib berish kompyuter va Internetsiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy ta’limning afzalliklari masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning juda ko‘p ijobiy tomonlari mavjud. Yashash joyidan turib, o‘qish imkoniyati - chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, universitetga kirib-o‘qish imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari ularga o‘z shahridan ketmasdan turib, o‘qish imkoniyatini yaratib beradi. O‘qish va ishni birga qo‘shib olib borish - o‘quvchilar ishdan ajralmagan holda ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma’lumot oluvchilarga juda qo‘l keladi. Sifatli texnologiyalar va o‘quv mazmunini egallash-talaba sifatli o‘quv materiallari yordamida o‘qitilishi, o‘qituvchi bilan muloqat qilishi va o‘z individual o‘quv rejasini tuzishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Jamshid Turdalievich. “Social and psychological opportunities of information and psychological security in adolescents” International Conference on Developments in Education. Hosted from Bursa, Turkey. https: econferencezone.org July 15th 2022 45-48 p
https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1279

2. Мирзаев, Д., & Наргулова, А. (2022). «Лечение интернет-зависимости. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы» Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы 1(1), 498–500. извлечено от
https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5217

3. Мирзоев, Д. (2022). “Internet qaramligini shakllanishning sabablari, mexanizmlari va diagnostikasi.” Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), № 1 (2022) 500–503. извлечено от
https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5218.

4. Jamshid Turdaliyevich Mirzayev. Yoshlar ijtimoiy hulq-atvoriga internet muloqoti ta‘sirining psixologik jihatlari. Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. Volume 4 | TMA Conference | 2023. May 6. 812-816 p. https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-ijtimoiy-hulq-atvoriga-internet-muloqoti-ta-sirining-psixologik-jihatlari/viewer

5. Mirzayev Jamshid Turdialiyevich. “Psychological aspects of influence of the internet - communication on the social behavior of the youth” / INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS. International scientific-online conference. 2023. Part 18. JUNE 3rd. 1295-1300 p.
https://interonconf.org/index.php/neth/article/view/5386

6. Mirzayev Djamshid Turdalievich/ PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH. The results of the study of Internet addiction on the method of Kimberly-Yang. NEUROQUANTOLOGY | October 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 12 | PAGE 3409-3416| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.12.NQ77350
https://www.proquest.com/openview/c0c46eaeba7bf0e04fd82a955955a4dd/1?pq-origsite=gscholar&cbl=2035897

7. Mirzayev Djamshid Turdalievich / Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young / PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ B volume 3 issue 4 – 359p https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109

8. Mirzaev Jamshid Turdalievich. Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young people. Science and innovation international scientific journal. VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. 174-177 p https://doi.org/10.5281/zenodo.11032109

9. Drucker, P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practices and Principles / P.F. Drucker. – New York: Harper & Row, 1985. – 278 p.

10. Хьелл, Л. Теории личности: основные положения, исследования и применение / Л., Хьелл Д. Зиглер. – СПб.: Питер, 2008. – 608 с.

2-SHO‘BA. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING DOLZARB MASALALARI